

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.T.19.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**UMAROVA MAFTUNA MASHRABJON QIZI**

**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA KALIY SULFAT OLISH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of the dissertation abstract of doctor of filosofy (PhD)**

**Umarova Maftuna Mashrabjon qizi**

Mahalliy xomashyolar asosida kaliy sulfat olish texnologiyasini ishlab  
chiqish.....5

**Умарова Мафтуна Мащрабжонова кизи**

Разработка технологии получения сульфата калия на основе местного  
сырья .....21

**Umarova Maftuna Mashrabjon qizi**

Development of a technology for producing potassium sulfate based on  
local raw materials .....41

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ

List of published works .....44

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.T.19.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**UMAROVA MAFTUNA MASHRABJON QIZI**

**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA KALIY SULFAT OLISH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5030 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida va «Ziyonet» Axborot ta'lim tarmog'iga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Dexkanov Zulfikaxar Kirgizbayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sultonov Baxodir Elbekovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Usanbayev Najimuddin Xalmurzayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.19.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «17» mart soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Farg'ona ko'chasi, 86. tel.: (99873) 241-12-06; faks: (99873) 241-12-06, e-mail: [info@fstu.uz](mailto:info@fstu.uz)).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat texnika universitetining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (№ 317 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Farg'ona ko'chasi, 86. tel.: (99873) 241-12-06.), e-mail: [info@fstu.uz](mailto:info@fstu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «02» mart kuni tarqatildi.  
(2026 yil «28» fevraldagi № 1-26-raqamli reestr bayonnomasi).

**Xamrakulov Z.A.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
t.f.f.d., dotsent

**Mirzaqulov G'.R.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi,  
t.f.f.d., dotsent

**Turdialiyev U.M.**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.f.d., professor

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo aholisi sonining ortib borishi va unumdor yerlarning kamayishi, sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar unumdorligini oshirish maqsadida mineral o'g'itlarni qo'llash talab etiladi. Ekin maydonlari hosildorligini oshirish uchun mineral o'g'itlarni tuproqqa kerakli miqdorda qo'llash zarurdir. Mineral o'g'itlar tuproq tarkibida o'simlikning o'sishi va rivojlanishi uchun kerakli ozuqa moddalarining miqdorini oshiradi hamda tuproqning biologik, fizik va kimyoviy xususiyatlarini o'zgartiradi. Shu sababli tarkibida azot, fosfor, oltingugurt, kaliy kabi ozuqaviy elementlar saqlagan murakkab o'g'itlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Jahon miqyosida ekstraksiya fosfor kislotasi (EFK) ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan chiqindi fosfogipsdan ikkilamchi mahsulot sifatida foydalanish maqsadida olimlar tomonidan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Fosfogipsning yig'ilib borishi atrof – muhit ekologiyasining buzilishi, ya'ni suv qobig'i, yer qatlami va atmosferaning ifloslanishi kabi ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun fosfogipsni yuqori haroratlarda qayta ishlab sulfat kislotasi va qurilish materiallari olish, ekin maydonlarida meliorant sifatida qo'llash, kaliy karbonat bilan konversiya qilish orqali qishloq xo'jaligi uchun kerakli bo'lgan xlorsiz kaliyli o'g'it olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yirik kimyo korxonalaridan biri “Ammofos – Maxam” AJ da ishlab chiqarilayotgan fosfogipsni atrof-muhitga keltirayotgan zararli ta'sirlarini kamaytirish maqsadida yuqori ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasining oltinchi yo'nalish 79-maqsadida «...aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish...»<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, mahalliy chiqindi fosfogipsni kaliy karbonat bilan konversiya qilish orqali qayta ishlash, jarayon borishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, kalsiy karbonatning yaxshi filtrlanadigan kristallarini olish, oraliq mahsulotlar va chiqindilarni qamrab olgan holda kaliy sulfat olishning energiyatejamkor texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar PF-60 son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasi” farmoni va 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021 yil 13 fevraldagi PQ-4992 son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022 yil 1 martdagi 91-sonli “Mineral

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida»gi PF-60 son qarori

o'g'itlar xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentini tasdiqlash haqida", 15 dekabrda 753-sonli "Kimyo sanoati uchun innovatsion kimyoviy ilmiy-ishlab chiqarish va ta'lim klasterlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Dunyoda o'rganilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida sanoat va mahalliy chiqindilardan xlorsiz kaliy nitrat olishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan A.A.Rasulov., B.Numonov., A.N.Raximjanov, W.Shuang, I.M.Lyashkevich, Ye.A.Udalova, B.V.Levin, V.A.Kolokolnikov, I.I.Goncharik, U.Guppert, F.Kurz, J.Mulopol, Yu.F.Jdanov, S.V.Zapolskiy, V.I.Ledovskoy, B.B.Sadikov, N.X.Usanbaev va boshqalar ishlarida bayon etilgan.

L.L.Tovajnyanskiy, V.M.Sizyakov, R.N.Mirsayev, I.I.Goncharik, X.Ch.Mirzaqulovlar tomonidan gipsni karbonatli tuzlar ya'ni kaliy karbonat va ammoniy karbonatlari bilan qayta ishlash orqali ammoniy sulfat hamda kaliy sulfat olish jarayonlari o'rganilgan. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarida fosfogips tarkibida ma'lum miqdorda jarayon uchun keraksiz bo'lgan moddalar mavjudligi va suvda eruvchan  $P_2O_5$  massa ulushining yuqoriligi konversiya jarayoniga va hosil bo'lgan suspenziyaning filtrlanishiga salbiy ta'sir etgan. I.I.Goncharik, M.Yosixiko, S.B.Gorelik, Ya.B.Blyumberglar kaliy sulfat olish jarayoni va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishgan. Bunda kaliy sulfat olish jarayoni sulfat kislota hamda ammiak ishtirokida amalga oshirilgan bo'lib, jarayon natijasida olingan eritmaning pH muhiti kislotali bo'lganligi tufayli, konversiya jarayoni olib boriladigan qurilmalarning korroziyaga uchrashiga sabab bo'lgan. I.I.Goncharik tomonidan kaliy sulfatning aylanma eritmasi yordamida fosfogips suspenziyasini karbonat ammiakli konversiya qilish orqali kaliy sulfat olish jarayoni o'rganilgan Ushbu tadqiqot ishining asosiy kamchiligi eritma tarkibida kaliy sulfat konsentratsiyasi pastligi bo'lib, eritmani bug'latish uchun ko'p miqdorda energiya talab etiladi.

Respublikamizda, sanoat chiqindisi hisoblangan fosfogipsni kaliy karbonat bilan qayta ishlash orqali, kalsiy karbonatning oson filtrlanadigan kristallari va kaliy sulfat konversion eritmasini olish, ushbu eritmani bug'latish asosida xlorsiz kaliyli o'g'it olish imkonini beruvchi energiyatejamkor texnologiyani ishlab chiqish hozirgacha o'rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat texnika universiteti va Namangan davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-692205622 raqamli "Markaziy Qizilqum fosforitlarini boyitishda hosil bo'lgan texnogen chiqindilarini qayta ishlash asosida sho'rlangan tuproqlarga qo'llashga

mo'ljallangan suyuq azot-kalsiyli o'g'it olish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi bajarilishi 2023-2025 yillarga mo'ljallangan innovatsion va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sanoat chiqindisi fosfogipsni mahalliy chiqindi asosida karbonatli konversiya qilish orqali kaliy sulfat o'g'itini olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sanoat chiqindisi fosfogips va kungaboqar kuli yordamida kaliy sulfat o'g'itini olish uchun dastavval xomashyolarning kimyoviy va fizik-kimyoviy tarkibini aniqlash;

sanoat chiqindisi fosfogipsni mahalliy chiqindi asosida karbonatli konversiyalanish darajasiga kaliy karbonat, aylanma eritma konsentratsiyasi, vaqt va haroratning ta'sirini o'rganish;

sanoat chiqindisi fosfogipsni mahalliy chiqindi asosida karbonatli konversiyalash jarayonida hosil bo'lgan karbonatli suspenziya hamda filtratning reologik (zichlik va qovushqoqlik) xossalari o'rganish;

sanoat chiqindisi fosfogipsni mahalliy chiqindi asosida karbonatli konversiyalashdan olingan suspenziyasining filtrlanish tezligini aniqlash;

sanoat chiqindisi fosfogipsni mahalliy chiqindi asosida kaliy sulfat o'g'itini olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda jarayonning moddiy balansini hisoblash;

kaliy sulfat olish texnologiyasini yirik tajriba sinovidan o'tkazish va ishlab chiqarishning texnik iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida sanoat chiqindisi fosfogips, mahalliy chiqindi kaliy karbonat, kaliy sulfat eritmasi, kalsiy karbonat, nitrat kislotasi, kaliy sulfat o'g'itlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sanoat chiqindisi fosfogipsni mahalliy chiqindi asosida karbonatli konversiya qilish orqali olingan suspenziyani suyuq va qattiq fazalarga ajratish, bug'latish, quritish jarayonlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarning xossalari tahlil qilish uchun kimyoviy, fizik-kimyoviy tahlilning skanerlovchi elektron mikroskop (SEM - EVO MA 10 (Zeiss, Germany)), element tahlil uchun (Energy-Dispersive x-ray spectrometer (EDS-Oxford Instrument)) va rentgenofazali usulidan (Panalytical Empyrean, (Niderlandiya)) foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kaliy karbonat eritmasini konversiyalash jarayoniga bosqichma-bosqich kiritilishi natijasida, jarayon davomiyligini 30 daqiqagacha kamayishi asoslangan;

sanoat chiqindisi fosfogipsni mahalliy chiqindi asosida karbonatli konversiyalash jarayonida konversiya darajasi 83-86% gacha borganligi asoslangan;

sanoat chiqindisi fosfogipsni mahalliy chiqindi asosida karbonatli konversiyalashdan olingan suspenziyasini filtrlanish tezligi 1809,44 kg/m<sup>2</sup>·soat va 3545,81 kg/m<sup>2</sup>·soat ekanligi aniqlangan;

tadqiqot doirasida olingan namunalarning rentgenafazali, IQ-spektroskopik va fizik-kimyoviy tahlillari o'tkazilgan hamda xlorsiz kaliyli o'g'it olishning maqbul tarkibi aniqlangan;

sanoat chiqindisi fosfogipsni mahalliy chiqindi asosida karbonatli konversiyalash orqali kaliy sulfat olishning moddiy sarf hisobi ishlab chiqilgan, quritish hamda sovutish jarayonlarini optimallashtirish orqali resurstejamkor kaliy sulfat olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sanoat chiqindisi fosfogipsni kungaboqar kuli asosida karbonatli usulda tarkibida kaliy va oltingugurt saqlovchi o'g'it olishning maqbul texnologik omillari aniqlangan va resurstejamkor texnologiyasi ishlab chiqilgan;

sanoat chiqindisi fosfogipsni kungaboqar kuli asosida karbonatli qayta ishlash natijasida ikkilamchi mahsulot sifatida tarkibida 97% gacha  $\text{CaCO}_3$  saqlovchi qurilish materiali olishning maqbul ko'rsatkichlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Kimyoviy va zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil natijalari laboratoriya tajribalari hamda tajriba-sanoat sinovlari, rentgenofazaviy, infraqizil spektr, energiya dispersion tahlillar, mass-spektroskopiya va eksperimental materiallarning katta hajmda olinganligi hamda joriy etish bo'yicha olingan dalolatnomalar va yuqori tashkilotning ma'lumotnomasi asosida tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, sanoat chiqindisi fosfogipsni kungaboqar kuli asosida karbonatli konversiya qilish jarayoniga kaliy karbonatning turli konsentratsiya va me'yorlarda berilishi natijasida ushbu xomashyolarni o'zaro konversiyalanishining qonuniyatlari aniqlanganligi, konversiya jarayoniga kaliy sulfatning aylanma eritmasi kiritilishi sababli sulfokarbonatli suspenziyani filtrlanish samaradorligi ortganligi, konversiya jarayonining maqbul kattaliklari ishlab chiqilganligi, tarkibida xlor saqlamagan yuqori konsentratsiyali kaliyli o'g'it olish jarayonining texnologik ko'rsatkichlari aniqlanganligi hamda kaliy sulfat o'g'itini olishga asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ekstraksion fosfor kislotasi ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan fosfogips chiqindisini mahalliy kungaboqar kuli asosida karbonatli qayta ishlab, qishloq xo'jaligida talab yuqori bo'lgan tarkibida kaliy va oltingugurt ozuqa moddalarini saqlovchi mineral o'g'it olish orqali uning miqdorini ma'lum darajada kamayishiga erishiladi hamda sanoat chiqindisi fosfogipsni atrof-muhitga keltirayotgan zararlari ma'lum darajada bartaraf etiladi va kaliy sulfat o'g'iti olishda qo'shimcha mahsulot sifatida hosil bo'lgan kalsiy karbonatdan qurilish materiali sifatida keng miqyosda foydalanishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi.** Respublikamizdagi mahalliy xomashyo fosfogipsni suyuq usulda karbonatli qayta ishlash orqali kaliy sulfat o'g'iti olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Sanoat va mahalliy chiqindilarni kislotali qayta ishlash orqali kaliy sulfat ishlab chiqarishning taklif etilayotgan texnologiyasi 2027-2028 yillarda “Elektrokimyozavod” qo‘shma korxonasi tomonidan istiqbolli ishlanmalar ro‘yxatiga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” QK AJ ning 2025 yil 23 maydagi 60-son ma’lumotnomasi). Natijada, kaliy va oltingugurtli o‘g‘it ishlab chiqarish imkonini beradi.

sanoat va mahalliy chiqindilarni konversiya usulida qayta ishlab kaliy sulfat ishlab chiqarishning taklif etilayotgan texnologiyasi 2027-2028 yillarda “Elektrokimyozavod” qo‘shma korxonasi tomonidan istiqbolli ishlanmalar ro‘yxatiga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” QK AJ ning 2025 yil 23 maydagi 60-son ma’lumotnomasi). Natijada, kaliy va oltingugurtli o‘g‘it ishlab chiqarish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro 1 ta Scopus va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Jumladan, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari 5 ta ilmiy maqola, ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan chop etish tavsiya etilgan respublika jurnallarida 4 ta va 1 ta xorijiy jurnalda chop etilgan.


**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgi va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 98 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, respublikada fan va texnologiyani rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot obyektlari va predmetlari keltirilgan, ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Dissertatsiyaning «**Kaliy sulfat ishlab chiqarishning hozirgi holati va uni olish usullari**» deb nomlangan birinchi bobida, kaliy sulfat xomashyolari va qishloq xo‘jaligida kaliy va oltingugurtli o‘g‘it sifatida tutgan o‘rni, dunyo miqyosida kaliy sulfat ishlab chiqarishning turli xil usullari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyektlari, ularni tavsifi va tajribalarni o‘tkazish usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida, dissertatsiya ishini bajarishda obyekt sifatida tanlab olingan qo‘shimchalarning tarkibi va xossalarini aniqlash hamda ular asosida olingan o‘g‘it namunalarini tayyorlash usullari haqida bayon qilinadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari sanoat va mahalliy chiqindilar fosfogips (yuvib quritilgan) va kaliy karbonat ( $K_2CO_3$  – 27,2%) bilan olib borildi. Fosfogips va kungaboqar kuli namunalarning asosiy kimyoviy tarkibi quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



### 1-rasm. Kungaboqar kuli va fosfogipsning skanerli elektron mikroskop tahlili

Dissertatsiyaning «Fosfogipsni nitratli konversiya yo‘li bilan kaliy sulfat olish» deb nomlangan uchinchi bobida, fosfogipsni kaliy nitrat bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri konversiyalab kaliy sulfatga aylantirish orqali xlorsiz kaliyli o‘g‘itlarga qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Eng katta amaliy qiziqish fosfogips va  $KNO_3$  ni kaliy sulfat yoki singenit hosil qilish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri konvertatsiya qilishga qaratilgan. Kaliy nitrat va kalsiy sulfatning konversiyalash jarayoni tuzlarning  $K^+$ ,  $Ca^{2+}||NO_3^-$ ,  $SO_4^{2-}-H_2O$  sistemadagi eruvchanligiga asoslangan.

Gipsning kaliy nitrat eritmasi bilan parchalanishi quyidagi reaksiyaga muvofiq ikki bosqichda olib boriladi:



Bu jarayonni amalga oshirishning maqbul sharoitlarini aniqlash uchun  $KNO_3$  va  $CaSO_4$  ni eritmasida  $K_2SO_4$  olish jarayoniga  $KNO_3$  sarfi, aralashtirish vaqti, harorati va miqdori o‘rganildi. Tadqiqotlar natijasida aniqlandi (1-jadval).  $KNO_3$  ni iste‘mol qilish darajasi stexiometriya me‘yoridan oshishi konversiya jarayoniga ijobiy ta‘sir etadi, natijada olingan mahsulot tarkibidagi  $K_2SO_4$  ning miqdori oshadi. Shunday qilib,  $KNO_3$  ning 150% stoxiometriya me‘yorida qattiq fazaning mineralogik tarkibida 63,74% va 67,31 %  $K_2SO_4$  mavjud bo‘ladi.

$KNO_3$  va fosfogips o‘rtasidagi konversiyani amalga oshirishda muhim parametrlardan biri haroratdir. Ma‘lumki, haroratning oshishi, kimyoviy jarayonni tezlashtiradi, bu reaksiyaga kirishuvchi moddalar molekulalarining to‘qnashuvining tezlashishiga olib keladi.  $CaSO_4$  va  $KNO_3$  ning konversiyasini amalga oshirish 60-80°C da olib borish tavsiya etilgan: birinchidan, yuqorida ko‘rsatilgandek, sulfatning

eruvchanligining oshishi tufayli haroratning ko'tarilishi  $\text{CaSO}_4$  va  $\text{KNO}_3$  o'rtasidagi almashinuv reaksiyasiga ijobiy ta'sir qiladi, ikkinchidan,  $\text{CaSO}_4$  ning suvda erishi va  $\text{KNO}_3$  ning o'zaro ta'sirlashish yuzaga keladi, natijada tizimning  $60^\circ\text{C}$  gacha ko'tarilishi reaksiyani o'ng tamonga siljitadi, bu reaksiyaning borishiga ham ta'sir qilishi mumkin; uchinchidan, haroratning oshishi  $\text{CaSO}_4$  ning suvda eruvchanligini oshishiga yordam beradi. Shunday qilib, agar  $60^\circ\text{C}$  da suvda maksimal  $\text{CaSO}_4$  miqdori 26,7% bo'lsa, u holda  $80^\circ\text{C}$  da 760 mm simob ustunida u 38,6% gacha yetadi. Yuqoridagilarga asoslanib,  $\text{CaSO}_4$  va  $\text{KNO}_3$  tuzlarining 60 dan  $80^\circ\text{C}$  gacha bo'lgan harorat oralig'ida konversiyalash jarayoni o'rganildi.

### 1-jadval

#### **$\text{KNO}_3$ va fosfogipsni konversiyasiga aralashtirish vaqti 30 daqiqa, sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga stixiometriyaga nisbatan $\text{KNO}_3$ sarflanish me'yorini ta'siri**

| KNO <sub>3</sub> ni stoxiometrik me'yor darajasi, % | Tuz tarkibi, og': % |                   |                                | Mineralogik tarkib, og': % |          |                   |                                |
|---|---------------------|-------------------|--------------------------------|----------------------------|----------|-------------------|--------------------------------|
|   | KNO <sub>3</sub>    | CaSO <sub>4</sub> | K <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> | KNO <sub>3</sub>           | Singenit | CaSO <sub>4</sub> | K <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> |
| 100   | 0                   | 14,12             | 40,63                          | 0                          | 64,11    | -                 | 32,22                          |
| 120   | 2,54                | 13,66             | 44,22                          | 2,33                       | 49,72    | -                 | 46,41                          |
| 130   | 1,77                | 12,31             | 46,39                          | 1,87                       | 40,28    | 3,13              | 50,09                          |
| 140   | 1,02                | 9,77              | 50,29                          | 1,22                       | 20,13    | 3,49              | 53,16                          |
| 150   | 0,93                | 7,49              | 63,74                          | 0,95                       | -        | 3,55              | 67,31                          |
| 160   | 0,89                | 6,70              | 74,11                          | 0,87                       | -        | 4,77              | 74,07                          |
| 170   | 0,75                | 5,93              | 74,82                          | 0,79                       | -        | 5,15              | 75,91                          |
| 175   | 0,68                | 5,07              | 74,89                          | 0,67                       | -        | 5,66              | 76,40                          |


Tadqiqotlar  $\text{KNO}_3$  ning 150% stixiometriya me'yor darajasida va 30 daqiqa aralashtirish vaqtida amalga oshirildi. Kutilganidek, haroratning oshishi qattiq fazadagi  $\text{K}_2\text{SO}_4$  miqdorining ortishiga olib keldi (2-jadval).

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, agar  $30^\circ\text{C}$  da qattiq fazada  $\text{K}_2\text{SO}_4$  konsentratsiyasi 44,49% ga yetsa, 50 va  $80^\circ\text{C}$  da bu ko'rsatkich mos ravishda 54,13 va 79,63% ga yetdi.  $60^\circ\text{C}$  da  $\text{K}_2\text{SO}_4$  ning miqdori 77,54% ni tashkil etdi, ya'ni teskari reaksiya kuzatilmadi. Olingan natijalarni tahlil qilganda,  $80^\circ\text{C}$  da  $\text{K}_2\text{SO}_4$  miqdori eng yuqori qiymatga yetganligi aniqlandi – 79,51%. Shu bilan birga, konversiya jarayonini past haroratlarda olib borish murakkab nostandart qurilmalarni talab qiladi. Shundan kelib chiqib, konversiya jarayonini amalga oshirish uchun maqbul harorat  $60\text{-}80^\circ\text{C}$  deb hisoblanishi kerak, bunda qattiq fazadagi  $\text{K}_2\text{SO}_4$  konsentratsiyasi taxminan 79,63% ga yetadi.

**KNO<sub>3</sub> va CaSO<sub>4</sub> ni konversiya jarayonida olingan qattiq fazaning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga haroratning ta'siri (KNO<sub>3</sub> ni stexiometrik me'yor darajasi 150%)**

| Harorat, °C | Konversiya vaqti, daqiqa | Qattiq fazaning ion tarkibi, og'; % |                  |                              |                               | Qattiq fazaning tuz tarkibi, og'; % |                   |                                |
|-------------|--------------------------|-------------------------------------|------------------|------------------------------|-------------------------------|-------------------------------------|-------------------|--------------------------------|
|             |                          | K <sup>+</sup>                      | Ca <sup>2+</sup> | NO <sub>3</sub> <sup>-</sup> | SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup> | KNO <sub>3</sub>                    | CaSO <sub>4</sub> | K <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> |
| 30          | 15                       | 42,1                                | 1,55             | 0,30                         | 53,4                          | 0,61                                | 5,42              | 44,49                          |
| 40          | 15                       | 43,8                                | 1,51             | 0,33                         | 54,4                          | 0,63                                | 5,22              | 44,91                          |
| 50          | 15                       | 42,9                                | 1,49             | 0,32                         | 55,2                          | 0,65                                | 5,11              | 53,42                          |
| 50          | 30                       | 41,3                                | 1,76             | 0,40                         | 54,7                          | 0,72                                | 6,02              | 54,13                          |
| 60          | 15                       | 40,1                                | 1,60             | 0,37                         | 53,0                          | 0,77                                | 5,41              | 61,44                          |
| 60          | 30                       | 41,1                                | 2,36             | 0,41                         | 55,5                          | 0,86                                | 7,65              | 77,54                          |
| 70          | 15                       | 39,5                                | 2,66             | 0                            | 54,9                          | -                                   | 8,72              | 78,73                          |
| 80          | 15                       | 31,3                                | 6,72             | 1,68                         | 52,8                          | 3,51                                | 21,39             | 79,51                          |
| 80          | 30                       | 40,8                                | 2,70             | 0,41                         | 56,3                          | 0,94                                | 9,22              | 79,63                          |

Fosfogipsni suyuqlik usulida nitratli konversiyalashni asosiy ko'rsatkichi albatta uning konversiyalanish darajasi bilan tavsiflanadi. Bu 2-rasmda keltirilgan bo'lib, fosfogipsda 5 daqiqa vaqt oralig'ida, harorat 60°C va 100% stexiometriya me'yorda 68,95%, 30 daqiqalik vaqt oralig'ida va 100% stexiometriya me'yorda 77,38% ni tashkil etdi. Fosfogipsni konversiyalanish darajasi biroz yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, maqbul vaqt 30 daqiqa bo'lib, unda konversiyalanish darajasi 77,98% ni tashkil etadi.



**2-rasm Konversiya darajasini vaqtga bog'liqligi 1) 60°C; 2) 80°C**

Laboratoriya tadqiqotlari gipsni suyuq fazali nitratli konversiyalash jarayonida aylanma eritma kaliy sulfat ishtirokida olib borildi. Kaliy sulfatning 15-35% li konsentratsiyali aylanma eritmasi asosida gipsni kaliy nitratning 50% li suvli eritmasi va 100-150% li stexiometriya me'yorida 80°C haroratda konversiya jarayoni o'tkazildi. Kaliy nitrat eritmasining kiritilishi vaqtini sun'iy ravishda uzaytirish yo'li bilan kiritilgan ushbu oqimlarning nisbatlari darajasining oshishi gipsni konversiyalanishi va asosiy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, gipsning konversiyalanish

darajasi 30 daqiqa vaqt oralig'ida dastlabki reaksiyaga kirishuvchi komponentlar bilan aloqa qilish vaqtida maksimal (77-79%) ga yetdi. Kaliy sulfatning filtrlanish tezligi reaksiya komponentlarini 5-10 daqiqa vaqt oralig'ida aloqa qilish davridan oldinroq maksimal darajaga yetdi. Erishilgan ko'rsatkichlarning qiymatlariga ko'ra (quruq cho'kindi) yuqoridagi chegaralar doirasida kalsiy nitrat va kaliy sulfat filtrlash jarayoni qoniqarli filtrlanadigan cho'kindilar sinfiga yaqinlashdi. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

**3-jadval**

**Kaliy sulfat aylanma eritmasi ishtirokida, fosfogipsni kaliy nitratning 50% li suvli eritmasi bilan konversiya qilib olingan filtratdagi kaliy sulfat massa ulushi va fosfogipsning konversiyalanish darajasi**


| Kaliy nitrat kritilish vaqti, daqiqa | Aylanma eritma $K_2SO_4$ konsentratsiyasi, % | H, °C | KNO <sub>3</sub> stexiometriya me'yori, % |  |                              |  |                              |  |
|--------------------------------------|--|-------|---|--|------------------------------|--|------------------------------|--|
|                                      |  |       | 100                                       |  | 120                          |  | 150                          |  |
|                                      |  |       | Konversiyalanish darajasi, %              | Filtratdagi kaliy sulfat massa ulushi, % | Konversiyalanish darajasi, % | Filtratdagi kaliy sulfat massa ulushi, % | Konversiyalanish darajasi, % | Filtratdagi kaliy sulfat massa ulushi, % |
| 5                                    | 15   | 80    | 41,19                                     | 19,62                                    | 42,73                        | 20,02                                    | 44,11                        | 20,61                                    |
|                                      | 25   |       | 50,59                                     | 23,47                                    | 51,66                        | 24,46                                    | 53,94                        | 25,32                                    |
|                                      | 35   |       | 59,11                                     | 28,39                                    | 60,98                        | 29,18                                    | 62,24                        | 30,19                                    |
| 10                                   | 15   | 80    | 42,60                                     | 22,19                                    | 43,22                        | 23,47                                    | 44,43                        | 25,31                                    |
|                                      | 25   |       | 51,73                                     | 28,31                                    | 52,79                        | 29,78                                    | 53,76                        | 30,42                                    |
|                                      | 35   |       | 60,29                                     | 33,47                                    | 61,11                        | 34,13                                    | 62,16                        | 35,34                                    |
| 15                                   | 15   | 80    | 45,46                                     | 30,14                                    | 45,53                        | 31,95                                    | 45,68                        | 33,14                                    |
|                                      | 25   |       | 54,69                                     | 32,22                                    | 55,90                        | 35,93                                    | 53,79                        | 37,31                                    |
|                                      | 35   |       | 63,88                                     | 37,41                                    | 65,95                        | 40,24                                    | 66,59                        | 41,04                                    |
| 2                                    | 15   | 80    | 49,70                                     | 32,89                                    | 53,55                        | 33,72                                    | 56,67                        | 35,09                                    |
|                                      | 25   |       | 58,38                                     | 36,53                                    | 62,44                        | 38,26                                    | 63,49                        | 38,79                                    |
|                                      | 35   |       | 63,93                                     | 39,47                                    | 71,13                        | 40,75                                    | 74,68                        | 42,17                                    |
| 25                                   | 15   | 80    | 53,27                                     | 35,67                                    | 55,36                        | 35,41                                    | 57,79                        | 36,60                                    |
|                                      | 25   |       | 62,66                                     | 39,57                                    | 63,97                        | 39,88                                    | 64,63                        | 41,38                                    |
|                                      | 35   |       | 64,52                                     | 40,23                                    | 72,71                        | 42,49                                    | 75,45                        | 43,90                                    |
| 30                                   | 15   | 80    | 54,73                                     | 37,84                                    | 65,40                        | 38,21                                    | 65,78                        | 39,09                                    |
|                                      | 25   |       | 65,57                                     | 41,78                                    | 69,22                        | 42,37                                    | 74,65                        | 43,18                                    |
|                                      | 35   |       | 74,96                                     | 44,29                                    | 73,57                        | 43,65                                    | 79,39                        | 47,38                                    |

Natijalar tahlili shuni ko'satdiki, olib borilgan barcha tajribalarda muvozanat vaqti 5-30 daqiqa oralig'ida o'rganildi. Shundan KNO<sub>3</sub> stexiometriya me'yori 100, 120, 150% oralig'ida filtratdagi kaliy sulfat massa ulushi 19,62-30,19 dan 37,84-

47,38% gacha bo‘lganligi aniqlandi. Fosfogipsning konversiyalanish darajasi esa 41,19-62,24 dan 54,73-79,39% gacha bo‘lgani aniqlandi. Doimiy haroratda va kaliy nitratning dastlabki konsentratsiyasida  $\text{SO}_4^{2-}$  ionlarining ajratib olish darajasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Navbatdagi tadqiqotlarda olingan kalsiy nitrat va dastlabki xomasho namunalarning rentgenografik tuzilish tarkiblari o‘rganildi. Namunalarning tarkiblari Yaponiyada ishlab chiqarilgan XRD-6100 (shimadze, Japan) kukunli difraktometrda olindi.  $\text{CuK}_\alpha$  nurlanishning ( $\beta$ -filtr, Ni,  $\lambda=1,54178\text{\AA}$  rentgen trubkasidagi to‘k kuchi va kuchlanish 30mA, 30Kv) ta‘sirida o‘tkazildi. Jaryonda detektorning doimiy aylanish tezligi 4 ayl/daq,  $0,02^\circ$  kamida ( $\omega/2\theta$ -bog‘lanish) bo‘lib, skanerlash burchagi  $4^\circ$  dan  $80^\circ$  gacha olib boriladi. Namunalarning aylanish tezligi 30 ayl/daq ga teng bo‘lgan kamerada tahlil qilindi.

3-rasmda esa fosfogipsni qayta ishlash asosida olingan eritma kalsiy nitratni  $\text{FG-Ca}(\text{NO}_3)_2$  ning intensiv cho‘qqilari (7,58; 4,25; 3,77; 3,05; 1,89 $\text{\AA}$ ) mavjudligini tasdiqlovchi difraksiyon cho‘qqilari kuzatildi.



**3-rasm FG asosida olingan  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  ning rentgenografik tasviri**

Dissertatsiyaning «Fosfogipsni karbonatli konversiya yo‘li bilan kaliy sulfat olish texnologiyasini ishlab chiqish» deb nomlangan to‘rtinchi bobida, kaliy sulfat olishning mavjud usullari ichida O‘zbekiston sharoiti uchun kaliy karbonat (mahalliy kul tarkibidagi) hamda fosfogipsning o‘zaro ta‘siriga asoslangan konversiya usuli eng maqbul hisoblanadi. Tadqiqotni olib borish uchun 2-bobda keltirilgan xomashyolardan foydalandik.

Kaliy karbonat va kalsiy sulfatning almashinuv reaksiyasi quyidagicha boradi,



Ushbu dissertatsiyada konversiya usulida, mahalliy chiqindilar va sanoat chiqindilaridan foydalanib  $\text{K}_2\text{SO}_4$  sintez qilish uchun 38,6% li  $\text{CaSO}_4$  eritmasi,  $\text{K}_2\text{CO}_3$  ning 27,2% eritmasidan foydalanilgan. Konvertatsiya  $30^\circ\text{C}$  haroratda 25 daqiqada amalga oshirildi.

Konversiya jarayoni 30°C va 25 daqiqa davomida kalsiy sulfat eritmasini kaliy karbonatning to‘yingan eritmasiga qo‘shib, komponentlarning 1:1 S:Q molyar nisbati bo‘lguncha amalga oshirildi.

4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, suyuqlik fazasining nisbati 1: 0,7 dan 1: 2 gacha o‘shishi bilan K<sub>2</sub>O ning qattiq fazadagi miqdori 31,77 dan 50,93% gacha ko‘tarilgan, boshqa komponentlar esa kamaygan. Shunday qilib, Ca<sup>+</sup> miqdori 21,66 dan 1,11% gacha, karbonat 23,78 dan 1,21% gacha, SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> 51,45 dan 48,24% gacha kamayadi. Olingan qo‘sh tuz K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>:CaSO<sub>4</sub> lar komponentlar bilan ifloslanganligi, bu esa qattiq fazada karbonat va kalsiy ionlarining mavjudligidan dalolat beradi. S:Q ning 1:0,7 dan 1:2 gacha ko‘tarilishi bilan suyuq fazaning tarkibi unchalik sezilarli darajada o‘zgarmaydi. Shunday qilib, K<sub>2</sub>O tarkibi 10,68 dan 13,07% gacha ko‘tarildi.

Olingan natijalar texnologik jihatdan Q:S nisbati 1: (0,7 - 2) ekanligini ko‘rsatadi. Hosil bo‘lgan qo‘sh tuz tarkibida (og‘ %): K<sub>2</sub>O - 31,77-50,93; SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> - 51,45-48,24; Ca<sup>2+</sup> - 21,66-1,11; CO<sub>2</sub><sup>2-</sup> - 23,78-1,21.

#### 4-jadval

#### Kaliy karbonatni kalsiy sulfat eritmasi bilan 30°C haroratda konversiyalash jarayonining kimyoviy tarkibiga Q:S fazalarning ta’siri


| Q:S   | Qattiq fazaning tarkibi, og‘irlik % |                  |                               |                               | Suyuq fazaning tarkibi, og‘irlik % |                  |                               |                               |
|-------|-------------------------------------|------------------|-------------------------------|-------------------------------|------------------------------------|------------------|-------------------------------|-------------------------------|
|       | K <sub>2</sub> O                    | Ca <sup>2+</sup> | CO <sub>2</sub> <sup>2-</sup> | SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup> | K <sub>2</sub> O                   | Ca <sup>2+</sup> | CO <sub>2</sub> <sup>2-</sup> | SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup> |
| 1:0,7 | 31,77                               | 21,66            | 23,78                         | 51,45                         | 10,68                              | 15,11            | 16,44                         | 1,47                          |
| 1:1,0 | 35,29                               | 11,93            | 13,10                         | 50,27                         | 11,21                              | 19,43            | 21,27                         | 1,39                          |
| 1:1,2 | 39,87                               | 6,95             | 7,62                          | 49,88                         | 11,98                              | 22,66            | 24,88                         | 1,25                          |
| 1:1,5 | 43,99                               | 3,97             | 4,32                          | 49,37                         | 12,45                              | 24,71            | 27,10                         | 1,18                          |
| 1:1,7 | 49,83                               | 2,09             | 2,27                          | 48,55                         | 12,79                              | 26,12            | 28,69                         | 1,09                          |
